

**MAKTAB ÓQUVCHILARINI KASB-HUNARGA YÓNALTIRISHDA  
TIZIMLI VA IZCHIL ISHLARNI TASHKIL ETISH.**

*Sirdaryo viloyati Guliston tumanai  
32-umumiy órta ta'lim maktabi psixologi  
Ummatova Sanobar Anvarovna.*

**Anatatsiya:** Ushbu maqolada maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish, qiziqishlarini aniqlash, rivojlantirish va qanday to'g'ri yo'l ko'rsatishga oid bo'lgan interfaol o'yinlar va usullarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** kasb, kasbga yo'naltirish, kognitiv, tarbiya, omillar, qiziqish, faoliyat, usullar, tizimli yondashuv, axborot, baholash, salohiyat, rivojlanish, tizim kasbiy ma'lumot berish.

**KIRISH**

Malumki har qanday jamiyatning ravnaqi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi fuqorolarining aqliy va axloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Bu rivojlanish esa yoshlarimizning yuksak darajada bilim olishi, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishi, jamiyat va mamlakat rivoji uchun hissa qo'shadigan faoliyatlari bilan shug'ullanishlari bilan bog'liqdir. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarni to'g'ri kasbga kasb tanlashga yo'naltirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlarini to'g'ri tashkil etish dolzarb kompleks pedagogik muammo sanaladi. Har bir inson kasb tanlashida avvalo uning oilasi, maktab va jamiyat a'zolarining ahamiyati katta. Yoshlarni kasbga yo'naltirishda eng avvalo ularni kognitiv, xulq-atvor va individual qiziqishlarini hisobga olish muhimdir.

**MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI**

Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlari ta'lim tizimi va darslarni tashkil etish bilan o'zaro bog'liqdir. B. Shouning fikricha kasb- mutaxassislarning chetdagi odamlarga qarshi fitnasidair. YE. A. Klimov o'z ishlarida bu haqida to'xtalib o'tgan. " Kasb-jamiyat uchun zarur va qadryatli soha bo'lib , bunda insondan jismoniy va ruhiy kuch talab etadi" bu kuchlar unga sarflangan mehnat o'rniga yashashi va rivojlanishi uchun muhim vositalar omili sifatida namoyon bo'ladi. D. I. Feldshteyn o'qish va kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish shaxs taraqqiyotini belgilovchi asosiy faoliyat deb aytib o'tadi. Sharq allomalaridan A.Jomiyning "Bahoriston", "Xiradnomai Iskandariy", "Tuhfatul ahror", "Silsilatuz zaliob" asarlarida bolalarga ta'lim-tarbiya berish va ularni va kasb-hunar o'rganishlar uchun to'g'ri yo'naltirish haqida yaxshi fikrlar ifodalangan. Chunonchi muayyan kasb hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishi shu

kasb-hunarning chinakkam shaydosi bo‘lishini aytgan. Bu mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur xayotiy vosita bo‘lib kelgan. Tadqiqotlar tahlili shuni korsatadiki o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish va kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishda tizimlilik, izchillik, onglilik va faollik tamoyillaridan foydalanish lozim.

### TADQIQOT METADALOGIYASI

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Ilmiy pedagogik va kasbiy adabiyotlarni tahlil qilish

Qiyoslash va uulashtirish

Pedagogik modellashtirish

Kuzatish va reflektiv tahlil

Tadqiqotning metadalogik asosi sifatida kasbiy pedagogik g‘oyalar va shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim tamoyillari olindi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko‘ra o‘quvchilarni kasb hunarga yo‘naltirish ishlarini yo‘lga qo‘yish quyidagi shart sharoitlar orqali samarali amalga oshirish aniqlandi.

Kasbga yo‘naltirilgan ta‘lim muhitini yaratish, bunda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va tahliliy yondashuvi rag‘batlantiriladi.

1. Kasbiy va pedagogik bililarni o‘zaro uyg‘unlashtirish.
2. Ochiq darslar va kasb-hunar markazlariga sayohatlar o‘quvchilar kasbiy qiziqishlarini rivojlantiradi.
3. Kasbiy faoliyatni modellashtirish, dars jarayonida real vaziyatlar asosida mashg‘ulotlar tashkil etish

Aniqlangan sharoitlar o‘quvchilarning kasb tanlashlarida ongli va maqsadli yondashish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta‘lim tizimi o‘quvchilarga faqat bilim beribgina qolmaydi, balki ularni tog‘ri kasb tanlashlariga ham yo‘naltiradi. Bugungi kunda o‘quvchi yoshlarni to‘g‘ri kasbga yo‘naltirish ta‘lim tizimi oldidagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Bu borada Respublikamizda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish me‘yoriyhuquqiy asoslari yaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasdi Prezidentining 2022- yil 11- maydagi PQ-241- sonli “Xalq ta‘limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish tizimi takomillashtirilmoqda. Qarorda 2022-2023 o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich sinf o‘quv rejasiga kiritilgan fanlar doirasida mehnat bozorida mavjud bo‘lgan turli kasblar to‘g‘risidagi tushunchalar berish nazarda tutilgan. 51 O‘zbekiston Respublikasdi Prezidentining 2024- yil 2- fevraldagi PQ- 53- sonli qarorda “Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari o‘quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida o‘quvchilarni kasbga

yo‘naltirish tizimi takomillashtirilmoqda. 2025-yil 23-oktyabrda PQ 316-qarori tasdiqlandi. Bu qarorda yoshlarni to‘g‘ri kasb tanlashga yo‘naltirish, kasbiy talimni rivojlantirish ishlari bo‘yicha ishlarni tizimli ravishda takomillashtirish, tashkil etish yo‘l-yo‘riqlarini, chora tadbirlarini ishlab chiqish va amalda joriy qilish vazifalari belgilab qo‘yilgan. Prezidentimizning yoshlarga bunday imkoniyat va e‘tibori esa yoshlarni to‘g‘ri kelajak sari yo‘naltirishga eng muhim jihat va o‘z navbatida o‘quvchilarni erta yoshdan boshlab biror bir kasbga yo‘naltirish vazifasini oldimizga pirovard maqsad qilib quyadi. Har bir inson kasb tanlashida avvalo uning oilasi, maktab va jamiyat a‘zolarining ahamiyati katta. O‘quvchilarning qiziqishlari, qobilyat va intilishlarini aniqlash orqali ularga mos kasblar haqida ma‘lumot berish muhimdir. Kasbga yo‘naltirish jarayonida turli uchrashuvlar, seminarlar, va kasb egalari bilan suhbatlar tashkil etish samarali natija beradi. Shuningdek o‘quvchilarni ishlab chiqarish korxonalarini, tashkilotlar va muassasalarga ekskursiyalarga olib borish orqali ularning kasblar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish mumkin. Ota-onalarning ham bu jarayondagi ishtiroki muhimdir. Ular farzandining qiziqishlarini inobatga olgan holda, unga bosim o‘tkazmasdan, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishlari lozim. Chunki majburan tanlangan kasb kelajakda muammolarga sabab bo‘lishi mumkin. Maktabda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlari tizimli ravishda olib borilishi lozim. Bu jarayonda sinf raxbarlari, fan o‘qituvchilari va maktab psixologininng o‘rni katta. Maktab o‘qituvchilari ham o‘quvchilarni boshlang‘ich sinflardan kasbga yo‘naltirish ishlarini darslar bilan birga olib boradilar. Shu bois, uni rivojlantirish jarayoni tizimli va bosqichma bosqich tashkil etilishi lozim. Kasbga yo‘naltirish ishlari odatda 5-sinfdan boshlab boshlanadi, lekin to‘liq va tizimli ishlar 7-11-sinflardan olib boriladi. Kasbga yo‘naltirishda 1-4-sinfda umumiy tasavvur shakllantiriladi mashg‘ulotlarda o‘yin orqali kasblar bilan tanishtirib boriladi, 5-6-sinf qiziqishlar aniqlash boshlanadi. 7-9-sinfda fanlarga moyillik aniqlanadi, kasbga yaqinlashish boshlanadi. Asosiy yo‘naltirish ishlari olib boriladi. 10-11-sinfda aniq kasb tanlanadi tayyorgarlik jarayonlari olib boriladi. Kasbga yo‘naltirishda boshlang‘ich diagnostika quyidagicha aniqlanadi. So‘rovnomalar, savollar orqali o‘quvchining qiziqishlari, orzu maqsadlari, aniqlanadi. Bundan tashqari kuzatuvlar, psixologik testlar, o‘quvchining o‘zi va ota-onalari bilan suhbatlar orqali o‘quvchilarning boshlang‘ich qiziqishlari aniqlab olinadi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish bo‘yicha olib boriladigan ishlarning barcha shakl va metodlari o‘quvchilarni kasb tanlashlariga qiziqitira olishi lozimdir. Kasbga yo‘naltirish ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda dars mashg‘ulotlari, suhbat, dialogli munozaralar bilan birga pedagogik o‘yin, mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi pedagogik texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi. O‘quvchilari kasb tanlashda biroz qiynaladilar aniq to‘xtamga kela olmaydilar, aniq bir kasbni tanlashdan uzoq

turadilar. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda ularning kasbiy moyilligi va ruxiyatining tanlayotgan kasbiya mos kelishi, ichki motivlari, va muhitni hisobga olish lozim. O‘quvchilar o‘rtasida to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan kasb tanlash ishi shunday bir asos bo‘lishi kerakki, yuqori sinflardagi o‘quvchilarning kasbga bo‘lgan qiziqishlari, o‘y va niyatlari keyinchalik shu negiz asosida rivojlanadi. O‘quvchilarga zamonaviy kasblar haqida ma‘lumot berish bilan birga ularning afzalliklari, jamiyatda talab yuqoriligi, farqlari, xususiyatlari, insonga beradigan imkoniyatlarini sekin-asta tushuntirib borish lozim. Bu o‘rinda darslarda turli interfaol strategiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu mashg‘ulotlar o‘quvchilar qobiliyatini rivojlantiradi, layoqatini sinab ko‘radi. Texnologiya darslarida turli mashg‘ulotlar va o‘yinli, interfaol metodlar yordamida dars mavzusiga mos ravishda darslarni tashkil etish orqali kasbiy tushunchalarni shakllantirish mumkin. O‘quvchilarni kasblarga bo‘lgan qiziqishini yana oshirish maqsadida “O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishga qaratilgan trening mashg‘ulotlaridan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Davlenshin M.G., Do‘stmuxamedova Sh.A. va b. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T., TDPU, 2004.
2. Do‘stmuxamedova Sh.A., Nishanova Z.T., Jalilova S.X. va b. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T., Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi. 2013.
4. Jalilova S.X. Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya. T, Innovatsion ziyo, 2020.
5. G‘oziev E.G‘. Ontogenez psixologiyasi. T., “Noshir”, 2010.
- S.X.Jalilova, F.I.Haydarov, N.I.Halilova “Kasbiy Psixologiya” – (o‘quv qo‘llanma) – 2010-y.

#### Elektron ta‘lim resurslari:

1. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
4. [www.connect.uz](http://www.connect.uz)
5. <http://edu.uz>
6. <http://lex.uz>
7. <https://raqamlitalim.trm.uz/>